

A J R I M
(jazo muddatini yengilrog'i bilan almashtirish to'g'risida
himoyachining iltimosnomasi yuzasidan)

2022 yil yanvar oyining 10-kuni jinoyat ishlari bo'yicha Qamashi tuman sudi o'z binosida ochiq sud majlisida, VKA orqali shu sudning raisi F.Qambarovning raisligida, sudya yordamchisi vazifasini bajaruvchi J.Toshpulatovning kotibligida, tomonlardan Qarshi maxsus prokurori D.To'rayev, mahkum Z.Rustamov va uning himoyachisi-advokat U.Nurmatovning ishtirokida, mahkum Rustamov Zufar Uktamovichga nisbatan tayinlangan jazoni o'talmay qolgan muddatini O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 74-moddasi 3-qismi "a" bandiga asosan jazoni yengilrog'i bilan almashtirish haqidagi himoyachining iltimosnomasini ko'rib chiqib, quyidagilarni

a n i q l a d i:

Rustamov Zufar Uktamovich, 1980 yil 28 noyabr kuni Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumanida tug'ilgan, Qarshi shahri, "Qilichbek qo'rg'oncha" MFY, Uzumzor ko'chasi, 7-uy, 10-xonadonda yashab kelgan, millati o'zbek, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, ma'lumoti o'rta-maxsus, Qarshi shahridagi "Platenum standart sifat servis", "Qashqadaryo diyor o'lka", "Buyuk yurt tayanchi" va "Ulkan ta'mir trans servis" mas'uliyati cheklangan jamiyatlari norasmiy rahbari vazifasida ishlagan, oilali, uch nafar farzandi bor, muqaddam 1) JIB Shahrisabz tuman sudining 04.08.2011 yildagi hukmiga ko'ra JKning 167-moddasi 2-qismi, 167-moddasi 3-qismi, 205-moddasi 2-qismi va 209-moddasi 2-qismi bilan 45,59,61-moddalari tartibida 3 yil muddatga axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlangan, jazodan 05.12.2011 yildagi "...amnistiya to'g'risida"gi aktiga asosan ozod qilingan, 2) JIB Qarshi shahar sudining 04.03.2015 yildagi hukmiga ko'ra, JKning 189-moddasi 3-qismi, 184-moddasi 3-qismi va 209-moddasi 2-qismi "a" bandi bilan 59,61-moddalari tartibida 3 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan, JIB Qashqadaryo viloyat sudi rayosatining 2015 yil 26 noyabrdagi qaroriga asosan sud hukmi o'zgartirilib, JKning 209-moddasi 2-qismi "a" bandi, 184-moddasi 2-qismi "a,b" bandlari aybidan chiqarilib, JKning 184-moddasi 3-qismidan JK 28,184-moddasi 3-qismiga qayta malakalanib, JKning 57-moddasi qo'llanilib, 2 yil 6 oy ozodlikdan mahrum qilingan, JIB Muborak tuman sudining 2015 yil 10 dekabrdagi ajrimi bilan JKning 74-moddasi 3-qismi "a" bandiga asosan ozodlikdan mahrum qilish jazosining o'talmasdan qolgan 1 yil 8 oy 24 kuni axloq tuzatish ishlari jazosiga almashtirilgan, 3) JIB Qamashi tuman sudining 2021 yil 26 fevraldagi hukmiga ko'ra, JKning 184-moddasi 3-qismi va 189-moddasi 1-qismi bilan JKning 59,61-moddalariga asosan 3 yil 1 oy ozodlikdan mahrum etilgan, 4) JIB Nishon tuman sudining 03.08.2021 yildagi hukmiga ko'ra JKning 181¹-moddasi 1-qismi, 184-moddasi 3-qismi va



228-moddasi 2-qismi “a,b” bandlari bilan 59,59-moddasi 8-qismi bilan 4 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan.

Mazkur jinoyat ishi jinoyat ishlari bo'yicha Qarshi shahar sudining 2021 yil 5 noyabr kunidagi hukmiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 184-moddasi 3-qismi va 189-moddasi bilan JKning 59,61-moddalari va 59-moddasi 8-qismi bilan 4 yil 2 oy muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan. Tayinlangan jazoni manzil-koloniya o'tashi belgilangan.

Himoyachi U.Nurmatov sudga iltimosnoma kiritib, mahkum Z.Rustamov manzil-koloniya etap bilan keltirilganini, jazoni o'tash davomida mehnatga halol munosabatda bo'lgani, ma'muriyat tomonidan o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarda faol ishtirok etganini, tayinlangan jazoni 1/4 qismini ya'ni 1 yil 2 oy 8 kun o'taganini e'tiborga olib iltimosnomani qanoatlantirib, o'talmay qolgan 2 yil 11 oy 22 kun ozodlikdan mahrum qilish jazosini shu muddatga, axloq tuzatish ishlari jazosiga almashtirishni so'ragan.

Sudda mahkum Z.Rustamov, o'ziga tayinlangan jazodan to'g'ri xulosa chiqarganini, tuzalish yo'liga o'tganini, jazoni o'tash jarayonida intizomiy jazolanmaganini bildirib, tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini yengilroq jazo turiga almashtirib berishni so'radi.

O'zbekiston Respublikasi JKning 74-moddasi 2-qismida jazoni yengilrogi bilan almashtirish ozodlikdan mahrum qilish jazo turi uchun o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnatga halol munosabatda bo'lgan mahkumga nisbatan qo'llanishi mumkinligi, shuningdek ushbu moddaning 3-qismi “a” bandida ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo'lsa, sud tayinlagan jazo muddatining kamida to'rt dan bir qismini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin qo'llanilishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Ish hujjatlariga ko'ra, Z.Rustamov jazoni ijro etish koloniyalarida jazo muddatini o'tash maboytida “ijobiy” tavsiflangan, koloniya kelgan kundan boshlab ishlab chiqarish zavodida oddiy ishchi bo'lib ishlab kelgan, kunlik ish meyorini to'liq bajargan, koloniya o'rnatilgan ichki tartib-qoidalariga rioya qilgan, tayinlangan jazoni to'rt dan bir qismini haqiqatda o'tagan.

Sud, iltimosnomani mahkum Z.Rustamovning yig'ma jildi bilan o'rganib chiqib, himoyachi va davlat ayblovcisining fikrini eshitib, mahkum Z.Rustamovni jazo o'tash davomida o'rnatilgan tartib qoida va talablarni bajarganini, mehnatga halol munosabatda bo'lganini, koloniya tomonidan ijobiy tavsiflanganini, tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini 1/4 qismini ya'ni, 1 yil 2 oy 8 kuni o'taganini, unga nisbatan O'zbekiston Respublikasi JKning 74-moddasini qo'lashni istisno etuvchi holatlar mavjud emasligini inobatga olib, taqdimnomani qanoatlantirishni, o'talmay qolgan 2 yil 11 oy 22 kun ozodlikdan mahrum qilish jazosini axloq tuzatish ishi jazosiga almashtirishni va jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilishni, axloq tuzatish ishlari jazosini ijrosini nazorat qiluvchi organlar tomonidan belgilangan joylarda o'tatirishni, oylik ish haqidan 20 foizini davlat foydasiga undirishni, jazo muddatini oylik ish haqidan ushlab qolingandan boshlab hisoblanishni, ajrim ijrosini ta'minlashni O'zbekiston Respublikasi IV huzuridagi JIED 4-mintaqaviy muvofiqlashtirish markaziga qarashli 34-son



manzil-koloniyasi va mahkumni yashash joyidagi IIO boshliqlariga yuklatishni lozim topdi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 536, 541, 542-moddalarini qo'llab, sud

ajrim qildi:

Mahkum Z.Rustamovning himoyachisi U.Nurmatovning iltimosnomasi qanoatlantirilsin.

Mahkum Rustamov Zufar Uktamovichning Jinoyat ishlari bo'yicha Qarshi shahar sudining 2021 yil 5 noyabr kunidagi hukmi bilan tayinlanib, o'talmagan 2 (ikki) yil 11 (o'n bir) oy 22 (yigirma ikki) kun ozodlikdan mahrum qilish jazosi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 74-moddasi 3-qismi "a" bandiga asosan oylik ish haqidan 20 foizini davlat daromadlari hisobiga ushlab qolgan holda shu muddatga axloq tuzatish ishlari jazosiga almashtirilsin va jazoni ijro etish muassasidan ozod qilinsin.

Axloq tuzatish ishlari jazosi jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar tomonidan belgilangan joylarda o'tattirilsin.

Jazo muddati oylik ish haqidan ushlab qolingandan boshlab hisoblansin.

Ajrim nusxasi ma'lumot uchun mahkumning himoyachisi va Qashqadaryo viloyati qamoqqa olinganlarni saqlash va jazoni ijro etish joylarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat bo'yicha Qarshi maxsus prokuroriga, ijro qilish uchun O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi JIED 4-mintaqaviy muvofiqlashtirish markaziga qarashli 34-son manzil-koloniyasi va Qarshi shahar IIO boshliqlariga yuborilsin.

Ajrimdan norozi taraflar ajrim e'lon qilingan kundan, mahkum ajrim nusxasini olgan kundan boshlab, 20 (yigirma) sutka muddat ichida shu sud orqali Qashqadaryo viloyat sudi jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga apellyatsiya tartibida shikoyat berish, prokuror esa protest bildirish mumkin.

Raislik etuvchi
Asliga to'g'ri

(imzo)

F.Qambarova

